

**QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING KASALLANISH
DARAJASIGA TASHQI MUHIT IFLOSLANISHINING TA'SIRI**

Saidmurodova Inoyat Ilhom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,

Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

inoyatsaidmurodova4@gmail.com

+998997182428

Maxmadaliyeva Osiyo Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,

Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

osiyomaxmadaliyeva7@gmail.com

+998977550424

Abdullayeva Elmira Nizom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,

Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abdullayevaelmira07@gmail.com

+998770801127

Annotatsiya: *Maqolada ekologiya, tabiat tushunchasi, uning buzilishining inson salomatligiga ko'rsatadigan ta'siri, bugungi kundagi statistic ko'rsatkichlar, olib borilgan ishlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ekologik kasalliklar, ekologik omillar, texnogen omillar, global isish, atmosfera ifloslanishi.*

Dolzarbliqi: *So'nggi o'n yillarda kuzatilayotgan aholi salomatligining yomonlashishi atrof-muhitning turli omillarining zararli ta'siri bilan bog'liq ekanligi ma'lum. Atrof-muhitning uzoq vaqt davomida ifloslanishi moslashtiruvchi mexanizmlarning zo'riqishi va ishi buzilishi, asosiy kasalliklarning xususiyatlari va kechishi o'zgarishi, ekologik bog'liq kasalliklar,*

irsiy va tug‘ma nuqsonlar tarqalishining o‘shishi, shuningdek, perinatal va chaqaloqlar o‘limi soni oshishi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining kamayishi bilan birga kuzatiladi.

Olimlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar aholi salomatligi holatiga ta‘sir qilish bo‘yicha yetakchi o‘rin egallaydi. JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, ijtimoiy omillar ulushi 50%ni tashkil etadi, atrof-muhit omillari ta‘sirining ulushi esa hududiy sharo-itlar, yuzaga keluvchi omilni qayd qilish uslublariga va ekspozitsiyaga bog‘liq bo‘lib, 24 dan 33% gacha tashkil qiladi.

Bolalar organizmi atrof-muhitning turli omillari ta‘siriga ortiqcha zo‘riqishi tufayli ham bolalar populyatsiyaning nisbatan nozikroq qismi hisoblanadi, bolalar organizmining o‘shishi va yetilishi jarayonlari intensiv ravishda kechadi, shu tufayli atrof-muhitni tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlar unga ta‘sir o‘tkazadi.

Texnogen omillar intensivligi nisbatan yuqori bo‘lmaganida, salomatlik holatining buzilishi uzoq vaqtdan so‘ng - organizmning bolalarda nisbatan erta yuzaga keladigan kompensator zahiralari tamom bo‘lishi oqibatida namoyon bo‘ladi. Bunday holatlarga surunkali stress sifatida qaralishi, hamda keyinchalik funksional zaxiralarning tugashi kuzatiladi.

Maqsadi: Qashqadaryo viloyati aholisining kasallanish darajasiga tashqi muhit ifloslanishining ta‘sirini o‘rganish va profilaktik chora tadbirlar.

Kutilayotgan natijalar: Atmosfera havosi ifloslanishi darajasiga sanoat korxonalarini, qishloq xo‘jaligida ishlatiluvchi pestitsidlar va o‘g‘itlar, aholi yashash joylarining obodonlashtirilish darajasi, tuproq sathining o‘ziga xosliklari, bir qator tabiiy va antropogen omillar ta‘sir o‘tkazar ekan, uning ifloslanishi darajasi shahar va qishloq tumanlarida bir xil bo‘lmasligini kutish mumkin.

Qarshi shahrida atmosfera havosi ifloslanishining nisbatan uzluksiz nazorat qilinib, yillik tekshirilgan jami namunalarning natijalariga ko‘ra nostandart namunalar ulushining ko‘rsatkichlari 5,3%dan (2019 yilda)

14,6%gacha (2020 yilda) o'zgarib turgan, 5 yillik o'rtacha ko'rsatkich esa $9,9 \pm 1,9\%$ ni tashkil etgan.

Biz tajriba uchun tanlab olgan, Qashqadaryo viloyatining turli joylarida joylashgan tumanlardagi atmosfera havosi nostandart namunalar ulushi ahamiyatli darajada o'zgarib turdi. Ko'kdala tumanida yillar bo'yicha 0,1dan 1,6% gacha (5 yilda o'rtacha $0,3 \pm 0,2\%$), Qamashi tumanida - 2,6dan 13,4%gacha (o'rtacha $6,4 \pm 3,6\%$), Qarshi tumanida - 6,8dan 17,3%gacha (o'rtacha $10,5 \pm 3,4\%$) bu ushbu tumanlarda atmosfera havosi ahamiyatli darajada ifloslanganligidan darak beradi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan shahar va qishloqlardagi, shuningdek, turli tumanlardagi atmosfera havosining nostandart namunalar ulushi ko'rsatkichlari yetarli darajada har xil ekanligi ular tarkibidan aniqlanadigan ifloslantiruvchilar (chang, gazlar va pestitsidlar) ingredientlarining miqdoriy nisbatiga bog'liq.

Atmosfera havosining gazsimon ingredientlar bilan ifloslanishini laboratoriya nazorati qishloq joylarda qariyb o'tkazilmagan.

O'rganilayotgan davrda Qashqadaryo viloyatining qishloqlari atmosferasidagi chang miqdorini aniqlash uchun 1267 namuna olingan, ulardan 145ta namuna nostandart bo'lib chiqqan. Shu tariqa, nostandart namunalar ulushi o'rtacha 5 yil uchun $17,48 \pm 5,15\%$ ni tashkil etdi (yillar bo'yicha 8,06%dan 32,09%gacha o'zgarib turgan holda).

Qishloq aholisi orasidagi birlamchi tibbiy nazorat ko'rsatkichlari (TN) va tumanlaridagi tashqi muhit ob'ektlarining 2019-2024 yillarda pestitsidlar bilan ifloslanganligining ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash maqsadida Pirson usuli bo'yicha hisoblashlar amalga oshirildi. Qishloqlari aholisi orasidagi tug'ma nuqsonlar (TN) ko'rsatkichlari va tashqi muhit ob'ektlarining pestitsidlar bilan ifloslanganligi orasidagi ishonchli o'rtacha to'g'ri korrelyatsion aloqa aniqlandi ($r_{xy}=0,41$; $m_r=0,074$). Amalga oshirilgan tadqiqotlar va hisob-lashlar asosida organizmiga pestitsidlar ko'proq tushadigan qishloq aholisi TN bo'yicha xavf guruhiga kirishini aniqlandi.

Xulosa: Yuzaga kelgan noqulay ekologik-gigienik sharoitning, xususan, mavjud atrof-muhit ob'ektlari ifloslanishi darajasining aholi salomatligiga va kasallanishlar dinamikasiga zararli ta'sirini kamaytirish uchun tarkibida zararli kimyoviy moddalar miqdori oshgan va mikrobiologik ifloslangan hududlar va atrof-muhit ob'ektlari, shuningdek, aholining xavf guruhini aniqlash va Sog'liqni saqlash jumladan respublika sanitariya nazorati xodimlarining sog'lomlashtiruvchi va profilaktika tadbirlari uzluksiz amalga oshirilishi, ishlab chiqilgan ekologik-gigienik va sanitariya-epidemiya qarshi tavsiyanomalar tadbiriq etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xo'janazarov O'.E, Yakubjonova Sh.T. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – T.: "Barkamol fayz media", 2018
2. To'xtayev A. Ekologiya. – T.: O'qituvchi, 1998
3. Haydarova H, Bahodirova Z, Yakubjonova Sh. Ekologiya o'qitish metodikasi. – T.: Iqtisod-moliya, 2009
4. Yakubjonova Sh.T va boshqalar. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish (laboratoriya va amaliy mashg'lotlar). – T.: "Navro'z", 2016
5. Yakubjonova Sh.T, Rajabov F.T. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish (amaliy mashg'lotlar uchun uslubiy qo'llanma). – T.: "PRINT 25", 2016.